

Respublika ichidagi qatnovlarning bekor qilinishi

2020 10 July

Hurmatli yo'lovchilar!

Uzbekistan Airways 2020- yil 13-iyuldan 1-avgustgacha barcha ichki qatnovlarning bekor qilinishini e'lon qiladi.

Ushbu majburiy choralar aholi orasida COVID19 koronavirusi tarqalishining oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin cheklovlari va jamoat transportida harakatlanishni taqiqlash natijasidir.

Aviakompaniya vaziyatni to'g'ri tushunishingizni so'raydi, shuningdek bekor qilingan qatnolarga olingan chiptalarni qatnovlar tiklanganidan keyingi istalgan sanaga qayta bronlash imkoniyati haqida yana bir bor xabardor qiladi. Keyingi o'zgarishlar to'g'risida sizga xabar beramiz.

uzairways.com saytimiz, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizdagi yangiliklardan xabardor bo'ling. O'zingiz va yaqinlaringizni ehtiyot qiling!